

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA ONA TILI O'QITISH ORQALI  
NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI**

**ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ ЧЕРЕЗ ОБУЧЕНИЕ  
РОДНОМУ ЯЗЫКУ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**SPECIFIC FEATURES OF DEVELOPING SPEECH CULTURE THROUGH  
TEACHING THE MOTHER LANGUAGE TO PRIMARY STUDENTS**

*Chorshanbiyeva Mahliyo Sherali qizi*

*Termiz davlat pedagogika instituti, magistr.*

*Muxtarova Lobar Abdimannabovna*

*Termiz davlat pedagogika instituti, dotsenti*

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitish jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari yoritilgan. Ona tili darslari orqali bolalarda og'zaki va yozma nutqni to'g'ri, ravon va mazmunli ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantirish, fikrni aniq ifodalash, muloqot madaniyatiga rioya qilish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada til o'rgatishning yoshga mos uslublari, interfaol metodlar va nutq madaniyati elementlarini o'rgatishda samarali bo'lgan mashg'ulotlar tahlil etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ona tili darslarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini ta'minlaydi va ularning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'z:** Ona tili, boshlang'ich ta'lim, nutq madaniyati, og'zaki nutq, yozma nutq, muloqot, til o'rgatish, so'z boyligi, ifoda erkinligi, fikrlash, grammatik ko'nikma.

**Аннотация:** Освещены педагогические и психологические основы формирования и развития культуры речи в процессе обучения родному языку учащихся младших классов. На уроках родного языка особое внимание уделяется развитию таких компетенций, как формирование у детей навыков правильного, беглого и осмысленного выражения устной и письменной речи, четкого выражения мыслей, соблюдения культуры общения. В статье также анализируются соответствующие возрасту методики обучения языку, интерактивные методы, эффективные упражнения в обучении элементам культуры речи.

**Ключевые слова:** Родной язык, начальное образование, культура речи, устная речь, письменная речь, коммуникация, обучение языку, словарный запас, свобода выражения, мышление, грамматические навыки.

**Abstract:** The pedagogical and psychological foundations of the formation and development of speech culture in the process of teaching the native language to primary school students are highlighted. Through native language lessons, special attention is paid to the development of such competencies as the development of children's skills in correct, fluent and meaningful expression of oral and written speech, clear expression of thought, and adherence to the culture of communication. The article also analyzes age-appropriate language teaching methods, interactive methods, and effective exercises in teaching elements of speech culture. **Keywords:** Mother tongue, primary education, speech culture, oral speech, written speech, communication, language teaching, vocabulary, freedom of expression, thinking, grammatical skills.

**Kirish.** Maktab ta'limining boshlang'ich bosqichi bolalarning shaxs sifatida shakllanishi, fikrlashining rivojlanishi va muloqotga kirishish ko'nikmalarini egallashida muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darslari orqali o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish va boyitish, ularning og'zaki va yozma ifoda qilish malakalarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Nutq madaniyati – bu nafaqat to'g'ri talaffuz va yozuv qoidalariga amal qilish, balki fikrni aniqlik, aniqlik va ravonlik bilan bayon eta olish, muloqotda madaniyatli yondashuvni namoyon etish san'atidir. Zamonaviy ta'limda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishga doir metodik yondashuvlar, interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borilayotgan darslar o'quvchilarning individual imkoniyatlarini ochish, fikrlash doirasini kengaytirish, til boyligini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ona tili darslarining mazmuni va tashkil etilish shakli o'quvchilarning estetik didi, madaniy dunyoqarashi, axloqiy qarashlari shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maqolada aynan shu nuqtai nazardan yondashilib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili o'qitish orqali nutq madaniyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, bu yo'nalishda qo'llanilayotgan metod va vositalar, shuningdek, o'qituvchining ushbu jarayondagi roli chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, mavzuga oid ilmiy-metodik qarashlar, amaliy tajribalar va pedagogik tavsiyalar asosida masalaga ilmiy yondashuv taqdim etiladi.

**Metodlar va o'rganilish darajasi:** Nutq madaniyati shunchaki so'z boyligini egallash emas, balki fikrni to'g'ri, mantiqan izchil, grammatik jihatdan aniq va

madaniyatli shaklda ifodalash ko‘nikmasidir. Ushbu malakani shakllantirish, ayniqsa, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar uchun murakkab va bir vaqtning o‘zida zaruriy jarayon hisoblanadi. Boshlang‘ich sinfda ona tili darslari orqali nutq madaniyatini rivojlantirish bugungi kunda pedagogika sohasining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shu boisdan, ushbu ilmiy maqolada mavzuni chuqur tahlil qilish, uning nazariy va amaliy jihatlarini ochib berish, mavjud tajriba va metodik yondashuvlar asosida tahlil qilish maqsad qilingan.

Maqolani yozish jarayonida bir necha pedagogik, psixologik va metodik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ular orasida quyidagilar asosiy o‘rinni egallaydi:

1. Tahlil va sintez usuli – mavzu doirasida mavjud bo‘lgan ilmiy maqolalar, dissertatsiya ishlari, darsliklar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar chuqur tahlil qilindi, muhim xulosalar ajratib olindi va umumlashtirildi. Bu usul mavzuning nazariy asoslarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.
2. Pedagogik kuzatuv – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan darslar jarayonida ularning nutqiy faoliyatlari, og‘zaki va yozma ifoda qilish ko‘nikmalari kuzatildi. Kuzatuvlar orqali o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishi, so‘z boyligi, grammatikani qo‘llay olish darajasi aniqlashtirildi.
3. Eksperimental usul – ayrim boshlang‘ich sinflarda innovatsion va interfaol metodlardan foydalangan holda darslar o‘tkazildi. Bu tajriba asosida an’anaviy yondashuv bilan zamonaviy metodlarning ta’siri solishtirildi.
4. So‘rovnoma va suhbat usuli – boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar hamda ota-onalar bilan suhbatlar o‘tkazilib, ularning ona tili ta’limi va nutq madaniyatini rivojlantirish borasidagi qarashlari o‘rganildi. So‘rovnomalar orqali amaliy holatlar, dars davomida yuzaga keladigan muammolar aniqlab olindi.
5. Taqqoslash va modellashtirish – turli yondashuvlar asosida tuzilgan dars ishlanmalari, til materiallari va metodik tavsiyalar bir-biri bilan solishtirildi, ularning samaradorligi tahlil qilindi. Shuningdek, sinfdagi til rivojlanish darajasi modellashtirildi.

Bu usullar natijasida olinayotgan ilmiy dalillar mavzuni chuqur tahlil qilish va tegishli ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

Ona tili o‘qitish orqali nutq madaniyatini rivojlantirish masalasi pedagogika sohasida uzoq yillardan buyon o‘rganib kelinmoqda. Xususan, o‘zbek tilshunosligi, boshlang‘ich ta’lim metodikasi va pedagogik psixologiya yo‘nalishlarida ushbu mavzuga doir ilmiy izlanishlar mavjud, jumladan: A. Vohidov “Ona tili o‘qitish metodikasi”, N. Mirzaahmedova “Boshlang‘ich sinfda muloqot madaniyati”, M.Rasulova “O‘quvchilarda so‘z boyligini rivojlantirish metodikasi”, Sh. Raximov

“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasida kompetensiyaviy yondashuv” masalalari bo‘yicha izlanishlar olib borganlar.

Shuningdek, xorijiy pedagogikada ham nutq madaniyati va muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha dolzarb tadqiqotlar mavjud. Jumladan, Lev Vygotskiy, J. Piaget, M. Montessori kabi psixolog va pedagoglarning fikrlariga tayanilsa, bola nutqi ijtimoiy muloqotda shakllanadi va pedagog bu jarayonda yo‘naltiruvchi bo‘lishi kerak. Bu qarashlar hozirgi kompetensiyaviy yondashuvga zamin bo‘lgan ilmiy asoslar sifatida ahamiyatga ega. Ammo mavjud tadqiqotlarning aksariyati umumiy nazariy yondashuvga asoslangan bo‘lib, boshlang‘ich ta‘lim jarayonida bevosita amaliyot bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan metodik ishlanmalar yetarli darajada chuqur ishlab chiqilmagan. Jumladan:

Har bir sinf bosqichiga mos metodik yondashuvlar yetarlicha farqlanmagan;  
Innovatsion texnologiyalarning (AKT, interfaol metodlar, o‘yinli yondashuvlar) ta‘siri amaliy tajriba asosida chuqur o‘rganilmagan;

O‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik yondashuvi nutq madaniyati shakllanishiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi kam tahlil qilingan.

Ushbu maqola shu kamchiliklarni to‘ldirishga xizmat qilishi maqsadida, nazariy bilimlar bilan birga amaliy dars kuzatuvlari, tajriba va so‘rovnomalarga asoslangan holda yozildi. Ayniqsa, zamonaviy yondashuvlar (kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, kommunikativ yondashuv) asosida dars tashkil qilish va bu orqali o‘quvchilarning nutq madaniyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish masalasi asosiy e‘tibor markazida bo‘ldi.

Metodik yondashuvlarning to‘g‘ri tanlanishi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari va individual ehtiyojlariga mos ravishda qo‘llanilishi, o‘qituvchining didaktik yondashuvi, ta‘limda innovatsion texnologiyalarning o‘rni, ona tili ta‘limining madaniy-tarbiyaviy xususiyatlari – bularning barchasi birgalikda o‘quvchining nutqiy rivojlanishini ta‘minlaydi. Shu sababli, metodlarni to‘g‘ri tanlash va ilmiy asosda o‘rganish, har bir pedagogning professional yondashuviga bog‘liq bo‘lib, bu masala har tomonlama tahlilga muhtojdir.

**Tadqiqot natijalari:** Ushbu ilmiy-amaliy tadqiqot doirasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatining shakllanishiga ona tili darslari qanday ta‘sir ko‘rsatishi, mavjud uslubiy yondashuvlarning samaradorligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni va o‘qituvchilarning yondashuvi chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda jamlangan:

Tadqiqotning dastlabki bosqichida 2–4-sinflarda tahsil olayotgan 120 nafar o‘quvchi nutqiy ko‘nikmalari, ya‘ni og‘zaki va yozma nutq, so‘z boyligi, mantiqiy fikrlashi,

izchil ifoda qilish layoqatlari bo'yicha diagnostik testdan o'tkazildi. Natijalar quyidagicha bo'ldi:

2-sinf o'quvchilarining 45 foizi o'z fikrini og'zaki ifodalashda grammatika xatolariga yo'l qo'ydi;

3-sinf o'quvchilarining 35 foizi matnni izchil bayon qila olmadi;

4-sinfda esa 60 foiz o'quvchilar aniq, mantiqiy va emotsional nutqga ega bo'lishi kuzatildi.

Bu ko'rsatkichlar nutq madaniyati bosqichma-bosqich shakllanayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 3-sinfdan boshlab fikrni mantiqiy tarzda ifoda etish ko'nikmalari shakllanayotgani aniqlandi.

Tadqiqot doirasida tajriba-sinov darslari tashkil qilinib, ikki guruh o'quvchilarga har xil metodlar asosida darslar o'tkazildi:

Birinchi guruh: an'anaviy metodlar (o'qituvchi markazli, grammatik tahlil, yozma topshiriqlar).

Ikkinchi guruh: zamonaviy metodlar (muloqotga asoslangan yondashuv, rolli o'yinlar, rasm asosida matn tuzish, suhbatlar, interfaol metodlar).

O'quv jarayonining bir oylik kuzatuv natijasida aniqlandiki:

Zamonaviy metodlardan foydalangan o'quvchilarning nutq faoliyatida ancha faollik kuzatildi.

O'zaro muloqotga kirishish, savol-javob, fikr bildirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish bo'yicha ko'nikmalari oshdi.

Matn yozish topshiriqlarida mustaqillik va ijodkorlik darajasi yuqoriligi kuzatildi. Masalan, "Bir kunda bo'lgan voqea" mavzusida matn yozish vazifasida an'anaviy metod bilan o'rgatilgan guruh o'quvchilari odatiy, qisqa va takroriy jumlar yozgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvda o'qigan guruhda obrazli, jonli ifodalar, voqealarni ketma-ket va tafsilotli bayon qilish ko'proq uchradi.

Tadqiqotda 15 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darslari kuzatildi va ularning metodik tayyorgarligi, tilni o'rgatishdagi yondashuvlari, darslarda qo'llaydigan metodik usullarining nutq madaniyatiga ta'siri o'rganildi.

Quyidagi xulosalarga kelindi: O'qituvchilarning 70 foizi grammatika va imlo qoidalarini ustuvor deb biladi, ammo nutqiy muloqotga yetarli darajada e'tibor qaratmaydi. Faqatgina 30 foiz o'qituvchilar darsda muloqotiy vazifalarni qo'llab, og'zaki fikr bildirishga undaydi. O'qituvchining o'zi namunalni nutqqa ega bo'lgan hollarda o'quvchilar orasida nutq madaniyati ancha yuqori bo'lishi aniqlandi. Bu natijalar o'qituvchilarning pedagogik yondashuvi va nutq madaniyatiga bo'lgan e'tibori ta'lim sifatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilishini ko'rsatdi. So'rovnomalar orqali

aniqlanishicha, o'quvchilarning 60 foizi uyda ota-onalar bilan doimiy muloqotda bo'lmaydi. Bu esa og'zaki nutqdagi sustlik, fikrni to'liq ifoda qila olmaslikka olib keladi. Ota-onalar farzandlari bilan ko'proq muloqot qilgan, kitob o'qishga rag'batlantirgan holatlarda esa bolalarning so'z boyligi va muloqot madaniyati yuqori bo'ldi. Bu natija nutqiy muhitning rivojlanishdagi rolini tasdiqlaydi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, darslik va qo'llanmalarda mavjud mashq va topshiriqlarning ba'zilarini nutq madaniyatini rivojlantirishga emas, balki faqat qoidalarga asoslangan yozma topshiriqlarga qaratilgan. Ular orasida og'zaki nutqni rivojlantiruvchi mashqlar (ertak tuzish, suhbat, matn tahlili) yetarli darajada emas. Tajribada esa quyidagi topshiriqlar eng samarali bo'ldi:

Rasm asosida hikoya tuzish

Savol-javob asosidagi suhbat

O'quvchi tajribasiga asoslangan matn yozish

Guruhlarda rolli sahnalashtirish

O'xshatish va metaforali ifodalarni mashq qilish

Bu faoliyatlar o'quvchilarda til sezuvchanligini, obrazli fikrlashni, grammatikani ongli qo'llashni shakllantiradi.

Yuqoridagi natijalar quyidagicha umumlashtiriladi:

1. Nutq madaniyati boshlang'ich ta'lim bosqichidanoq shakllanishi lozim bo'lgan muhim kompetensiyadir.
  2. Ona tili darslarida interfaol metodlar, muloqotga asoslangan yondashuvlar, ijodiy topshiriqlar qo'llanilganda natija ancha yuqori bo'ladi.
  3. O'qituvchining malakasi, o'z nutqi, metodik yondashuvi o'quvchi nutqining rivojlanishida hal qiluvchi o'ringa ega.
  4. Ota-onalar bilan muloqotdagi faoliyat va uy sharoitidagi nutqiy muhit ham bolaning til madaniyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.
  5. Darslik va o'quv materiallarida og'zaki nutqni rivojlantiruvchi topshiriqlarni ko'paytirish, o'qituvchilarni kommunikativ yondashuvga o'rgatish zarur.
- Shunday qilib, boshlang'ich sinfdan ona tili orqali nutq madaniyatini rivojlantirish — bu kompleks, ko'p omilli va har tomonlama metodik yondashuvni talab qiladigan jarayondir. Tadqiqot natijalari ushbu jarayonni yanada takomillashtirish, uni amaliyotga to'liq tatbiq etish zarurligini ko'rsatdi.

**Tahlil va natijalar:** Ushbu tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslari orqali nutq madaniyatini shakllantirish holati, bu yo'nalishdagi muammolar, mavjud usullar va ularning samaradorligi chuqur o'rganildi. O'rganishlar davomida nazariy va amaliy jihatlar qamrab olinib, sinfdagi real vaziyatlar,

o'quvchilarning individual holatlari, o'qituvchilarning metodik yondashuvlari, dars materiallari va oila muhitining ta'siri tahlil qilindi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida olib borilgan kuzatuv va suhbatlar natijasida aniqlandiki, ko'pchilik bolalarda so'z boyligi cheklangan, fikrni mantiqiy, izchil va ravon bayon qilishda muammolar mavjud. Ayniqsa 2-sinf o'quvchilari orasida so'zlashuv nutqi sustligi, grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzishdagi qiyinchiliklar sezilarli bo'ldi. Shuningdek, og'zaki nutqni rivojlantirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarga o'quvchilar faol kirishgani, fikr bildirishga intilgani kuzatildi. Bu esa ular tabiiy ehtiyoj sifatida muloqot qilishga intilayotganini anglatadi. Biroq, o'qituvchilarning darslarda asosiy e'tiborni qoidalar, yozma topshiriqlarga qaratishi bu imkoniyatni to'liq ochishga yo'l bermayotgani aniqlangan.

Ona tili darslarida nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar darsliklarda mavjud, biroq ular yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Masalan:

Matn tuzish, hikoya yozish, rasm asosida og'zaki bayon qilish kabi topshiriqlar har bir mavzudan so'ng berilmaydi;

Nutqiy topshiriqlarning murakkabligi sinf darajasiga mos kelmaydi — ba'zan 2-sinf uchun og'ir, 4-sinf uchun esa sodda topshiriqlar mavjud; O'qituvchilarning bu topshiriqlarga ijodiy yondashmay, ularni shakl uchun bajarilishi hollari ham uchraydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, agar bu topshiriqlarni samarali rejalashtirish, interfaol metodlar bilan boyitish va baholash mezonlarini aniqlashtirish yo'lga qo'yilsa, o'quvchilar nutq madaniyatida sezilarli o'sish kuzatiladi. Sinov guruhlarida turli metodlar bilan olib borilgan darslar taqqoslab o'rganildi.

An'anaviy metodlar (qoidani tushuntirish, yozma topshiriqlar, grammatik tahlil) asosida olib borilgan darslarda o'quvchilarning faolligi past, savollarga javob berishda ishtiyoq kamligi, sustlik ko'zga tashlandi. Aksincha, interfaol yondashuv (suhbat, rolli o'yinlar, klaster, fikrlar hujumi, rasmi matnlar) asosida olib borilgan darslarda esa o'quvchilarda quyidagi o'zgarishlar sezildi:

So'z boyligi oshdi, sinonim, antonimlar to'g'ri ishlatildi;

Gap tuzishda mantiqiy izchillik kuchaydi;

Ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatdan chiqish ko'nikmalari rivojlandi;

Og'zaki nutqda emotsional boyitish (intonatsiya, pauza, urg'u) elementi paydo bo'ldi. Bu esa interfaol yondashuv nutq madaniyatini shakllantirishda muhim omil ekanini isbotladi. Tadqiqot davomida 10 dan ortiq boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida kuzatildi. Tahlillar quyidagilarni ko'rsatdi: O'qituvchilarning pedagogik tajribasi yuqori bo'lsa-da, nutq madaniyati kabi noan'anaviy yo'nalishda metodik tayyorgarlik yetarli emas; Aksariyat hollarda o'quvchi bilan muloqot o'qituvchi

tomonidan boshqariladi, bola erkin fikr bildirishga rag‘batlantirilmaydi; Ba’zi o‘qituvchilar o‘z nutqida ifoda boyligini namoyon eta oladi, bu o‘quvchilarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, o‘qituvchining nutqiy madaniyati darajasi ham bevosita o‘quvchiga o‘tadi. O‘zini erkin, boy va madaniyatli ifoda eta oladigan pedagog o‘quvchilarda ham shunday salohiyatni shakllantiradi.

Tahlillar ko‘rsatdiki, oila bilan muloqoti kuchli bo‘lgan o‘quvchilarda til boyligi, muloqot madaniyati va fikrni ravon ifodalash ko‘nikmalari yuqori. Aksincha, ota-onasi bilan kam muloqot qiladigan bolalarda fikrning to‘liq bayon qilinmasligi, sodda va qisqa gaplar bilan cheklanish holatlari uchraydi. Bu ijtimoiy muhit (uydagi til muhitining boyligi, bolalar bilan suhbat madaniyati, televizor va telefon orqali iste’mol qilinayotgan kontent) nutq madaniyatining shakllanishiga bevosita ta’sir qilishini anglatadi.

Tahlil qilingan natijalardan quyidagi muhim xulosalar chiqarildi:

1. Boshlang‘ich ta’limda ona tili darslari o‘quvchi nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy manbai hisoblanadi.
2. An’anaviy metodlardan ko‘ra interfaol va kommunikativ yondashuvlar samaraliroqdir.
3. O‘qituvchining nutqiy malakasi va shaxsiy namuna bo‘lishi o‘quvchi nutqiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.
4. Darsliklardagi topshiriqlarni tizimli va mantiqan uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirish zarur.
5. Ota-ona va oila muhitida muloqotga rag‘batlantirish o‘quvchining nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

**Xulosa:** Ona tili fani orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish – ularning shaxsiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishida muhim o‘rin tutadigan ko‘p qirrali, murakkab va jarayonli pedagogik vazifadir. Ushbu ilmiy-amaliy tadqiqot davomida boshlang‘ich ta’lim bosqichida ona tili darslari orqali o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini boyitish, ifoda uslublarini shakllantirish, fikrni aniq va ravon bayon qilishga o‘rgatish, madaniy muloqot ko‘nikmalarini tarbiyalash kabi jihatlar atroflicha o‘rganildi va quyidagi asosiy xulosalarga kelindi: Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi faqat grammatik bilimlar emas, balki uslubiy, madaniy, kommunikativ kompetensiyalar asosida shakllanadi.

Darslar davomida to‘g‘ri talaffuz qilish, gap tuzish, matn bayon qilish, fikrni mantiqiy tarzda ifodalash kabi ko‘nikmalar puxta shakllantirilsa, bu bolalarning keyingi sinflarda va ijtimoiy hayotda o‘z fikrini aniq va ravon yetkazishda muhim asos

bo‘lib xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan metodlar nutq madaniyatining rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi. An‘anaviy yondashuvlardan voz kechib, interfaol, ijodiy, muloqotga yo‘naltirilgan metodlar – klaster, “aql charxi”, suhbatlar, rolli o‘yinlar, bahs-munozaralar orqali o‘quvchilarning nutqiy faolligi keskin ortadi. Bu esa o‘z navbatida ularning so‘z boyligini kengaytirish, mantiqiy fikrlashni kuchaytirish va madaniy ifoda uslublarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mavjud o‘quv dasturi va darsliklarda nutq madaniyatini rivojlantirishga doir topshiriqlar mavjud bo‘lsa-da, ularning miqdori va sifati yetarli emas. Ular tizimlashtirilmagan, ba‘zi hollarda sinf darajasiga mos kelmaydi yoki ijodiy fikrlashga yetarli imkon bermaydi. Shu bois, darsliklarga ko‘proq og‘zaki nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar – matn tuzish, hikoya qilish, rasm asosida izoh berish, rolli suhbatlar, baholash mezonlari bilan boyitilgan topshiriqlar kiritilishi zarur.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘quvchining oilaviy muhitida til madaniyatiga bo‘lgan e‘tibor past bo‘lsa, bolada fikrni aniq bayon qilish, muloqotda faol ishtirok etish ko‘nikmalari sust shakllanadi. Aksincha, ota-ona tomonidan kitob o‘qish, savol-javob qilish, bolani tinglash va fikr bildirishga rag‘batlantirish holatlari bo‘lgan oilalarda o‘quvchilarning so‘z boyligi va nutq madaniyati yuqori bo‘ladi. Shuning uchun, nutq madaniyatini shakllantirishda maktab-oila hamkorligi muhim omillardan biridir. Har bir o‘quvchining nutqiy salohiyati, intellektual darajasi, shaxsiyati va psixologik xususiyatlari har xil bo‘lganligi sababli, umumiy yondashuv o‘rniga individual yondashuv zarur.

Nutqiy kamchiliklarga ega bolalar bilan alohida ishlash, ularni rag‘batlantirish, muvaffaqiyatlarini e‘tirof etish, o‘ziga ishonchini oshirish orqali bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkin. Nutq madaniyati faqat tilga oid bilimlar emas, balki shaxs madaniyatining ajralmas qismidir. Go‘zal va to‘g‘ri so‘zlash, boshqalarni hurmat qilish, muloyimlik, xushmuomalalik, muloqotda ijobiy kayfiyat bilan ishtirok etish bular nutq madaniyatining tarbiyaviy jihatlaridir.

Darslarda adabiy matnlar asosida axloqiy saboqlar chiqarish, muhokamalar uyushtirish orqali o‘quvchilarda nafaqat til ko‘nikmalari, balki madaniyatli shaxs sifatida shakllanishga yo‘l ochiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirishda ona tili darslari yetakchi rol o‘ynaydi. Bu jarayonda o‘qituvchining bilimdonligi, metodik yondashuvi, darsliklarning mazmuni, oila muhitining qo‘llab-quvvatlashi va o‘quvchiga bo‘lgan individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Ona tili darslarini interfaol, ijodiy va kommunikativ yondashuvlar bilan boyitish.

2. O'qituvchilarning nutq madaniyatiga oid metodik bilimlarini oshirish bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
3. O'quv dasturi va darsliklarni nutqiy topshiriqlar bilan boyitish.
4. Ota-onalarning bu boradagi bilim va malakalarini oshirishga qaratilgan seminar va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish.
5. Har bir o'quvchi uchun alohida nutqiy rivojlanish kartasini yuritish orqali natijalarni tizimli nazorat qilish.

Shu asosda olib borilgan izchil ishlar boshlang'ich ta'limda sog'lom, madaniyatli, ravon va mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdullayeva, M. (2020). *Boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasi*. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
2. Karimov, N. (2019). *Nutq madaniyati asoslari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
3. Shodiyeva, N. (2021). *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirish metodikasi*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Qodirova, D. (2022). *Ona tili darolarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash yo'llari*. Toshkent: "Pedagog nashriyoti".
5. Mavlonova, R. (2018). *Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi*. Toshkent: "Yangi asr avlodi".
6. Rahmonqulova, M. (2020). *Til va nutq: tushuncha va farqlash usullari*. Ilmiy-amaliy maqolalar to'plami.
7. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. In НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (pp. 119-120).
8. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. *Гуманитарный трактат*, (24), 9-10.
9. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие И Формирования Критического Мышления У Школьников Начальных Классах. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.
10. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Open Access Repository*, 4(02), 81-84.
11. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna, & Saidakhmatova Nafisa Soatmurod kizi. (2023). DEVELOPMENT OF READING UNDERSTANDING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Academia Science Repository*, 4(04), 18-22.

12. Nafisa Saidakhmatova, & Lobar Mukhtarova. (2023). THE SIGNIFICANCE OF A ARTWORK IN THE FORMATION OF LEARNING SKILLS. *Academia Science Repository*, 4(04), 176–180.
13. Pardayeva Gulbahor Jalgashevna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF TEACHING NATURAL SCIENCES BASED ON STEAM TECHNOLOGY. *World Bulletin of Social Sciences*, 21, 109-111.
14. Feruza RAKHMONOVA, & Lobar MUKHTAROVA. (2023). THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF FORMING A CULTURE OF READING IN PRIMARY EDUCATION. *European Scholar Journal*, 4(3), 5-7.
15. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *Аннотация*, (2), 93-94.
16. Qulmo'minov O'rolboy, & Suyundikova Muslima. (2025). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI MEDIA TA'LIM VOSITALARI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI. ZAMONAVIY DUNYODA FANNING O'RNI VA AHAMIYATI BO'YICHA KONFERENSIYA, 2(1), 11–16.
17. Qulmuminov, O. R., & Suyundikova, M. (2025). STEAM FANLARI VA ULARNING ZAMONAVIY TA'LIMDAGI AHAMIYATI. *PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH*, 2(1), 8-14.
18. Qulmuminov, O. R., & Suyundikova, M. (2025). ONA TILI DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNING KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. *PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH*, 2(1), 15-20.
19. Safar o'g'li, Q. O. R. MODELLASHTIRISH ONA TILI O'QITISH TIZIMIDA YANGICHA YONDASHUV.
20. Kulmuminov, U. (2023). CREATIVE TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE EDUCATION. *Open Access Repository*, 4(2), 434-437.
19. KULMOMINOV, O. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. *World Bulletin of Social Sciences*, 27,54-56.
20. Kulmominov, O. (2023). TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN NATURAL SCIENCE TEACHING. *Open Access Repository*, 9(10), 112-116.
21. Kulmominov, O., & Ibragimova, F. (2024). DEVELOPMENT OF

- CREATIVE ABILITY OF STUDENTS IN PRIMARY EDUCATION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. *World Bulletin of Social Sciences*, 34, 66-69.**
22. **Kulmominov, O. (2024). Creative Thinking Of Students In Primary Education And Methods Of Its Display In The Educational Process. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(5), 283-289.**
23. **Hilola, N. (2024). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIGA SUV TEJASH VA ULARNI ISROF QILMASLIKKA OID BILIMLARNI O‘RGATISH. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(5), 170-173.**
24. **Safar o‘g‘li, K. U. (2024). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 10-13.**
25. **Safar o‘g‘li, K. U. (2024). FEATURES OF THE PROCESS OF DEVELOPING CREATIVE ABILITIES IN NATIVE LANGUAGE LESSONS. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 6-9.**